

AKTIVLAR QADRSIZLANISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

*U.A.Shirinov – SamISI, dotsent
F.Turayeva – SamISI, magistrant*

Annotatsiya: Maqolada aktivlar qadrsizlanishi haqida tushuncha, ularni qaysi xalqaro standartlar asosida tartibga solinadi va ularni qanday baholash mumkinligi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit soʻzlar: aktiv, aktivlar qadrsizlanishi, xalqaro standartlar, buxgalteriya hisobi.

Аннотация: В статье рассматривается понятие обесценения активов, какие международные стандарты используются для их регулирования и как они могут быть оценены.

Ключевые слова: активы, обесценения активов, международные стандарты, бухгалтерский учет.

Abstract: The article discusses the concept of impairment of assets, which international standards are used to regulate them, and how they can be assessed.

Key words: assets, depletion of assets, international standards, accounting.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi va jahonning yetakchi davlatlari safiga qoʻshilishi borasida izchil iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini investisiyalarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Bu esa oʻz navbatida korxonalar moliyaviy hisobotlarini barcha uchun tushunarli va ishonchli tayyorlanishi va taqdim etilishini talab etadi. Bu xususda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev fikr yuritir ekan, quyidagilarni taʼkidlaydi: “Barchamiz soʻzsiz tushunamiz, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy oʻzgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish eng avvalo iqtisodiy va moliyaviy organlarning faoliyati samaradorligiga bogʻliqdir. Ular yaqin va uzoq istiqbolga moʻljallangan, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga doir strategik vazifalarni nafaqat ishlab chiqishi, balki amalga oshirishni taʼminlashi zarur”¹.

Darhaqiqat, moliyaviy va iqtisodiy organlarning samarali faoliyati orqali sanoat, qishloq xoʻjaligi, qurilish, transport va boshqa tarmoqlarni barqaror rivojlantirish mumkin. Keyingi yillarda davlat moliyaviy nazoratini kamaytirish, tadbirkorlarning faoliyatiga asossiz ravishda aralashishlarni cheklash maqsadida auditorlik faoliyatini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada mamlakatimizda auditorlik faoliyatining mustahkam normativ-huquqiy bazasi va oʻziga xos milliy auditorlik xizmatlari bozori shakllantirildi, uni rivojlantirish uchun taʼsirchan iqtisodiy omillar hamda soliq imtiyozlari qoʻllanilmoqda, auditorlik faoliyatini lisenziyalash tizimi jiddiy ravishda soddalashtirildi hamda

¹ Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январ. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. 27-бет.

erkinlashtirildi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalariga qaramasdan "...auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti...".² O'tkazilayotgan islohotlar natijasida mazkur muammoning echimi sifatida "yirik davlat korxonalarida moliyaviy hisobot tuzish va audit o'tkazishda xalqaro standartlarni joriy qilish" kabi muhim vazifalar belgilab qo'yildi. O'z navbatida, yuqoridagi vazifalar ijrosini ta'minlashda auditorlik tekshiruvlarida ilg'or xorij tajribasi va dasturiy vositalardan foydalanish, auditorlik faoliyatida xalqaro standartlardan keng foydalanishga oid chuqur izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

Koxonalar faoliyatining asosi, moliyaviy xisobotlanrning muhim elementlaridan biri aktivlar hisoblanadi. Hisob va hisobotlarda ularning haqqoniy, aniq va eng asosiysi halqaro standartlar asosida aks ettirilganligini tekshirish auditning eng muhim masalalaridan sanaladi. Ayniqsa korxonalarda aktivlar holati to'g'risida real va shaffof ma'lumotlar taqdim etishda biz uchun deyarli yangi bulgan "qadrsizlanish"ni hisobga olish, undan kurilgan zararni tan olish masalalari auditning ham muhim masalalaridandir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirishga asos bo'lmoqda. Prezidentimiz ham qator ma'ruzalarida iqtisodiyotimizni rivojlantirish bo'yicha ta'kidlab kelmoqda, chunonchi "Bir yil ichida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish, biznesga keng yo'l ochish, bu borada qonun ustuvorligi va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash bo'yicha tizimli islohotlarni jadal davom ettirdik"³.

Barcha korxonalar balansida ko'p turdagi aktivlar, jumladan, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, investision aktivlar xamda boshqa aktivlar mavjud. Ushbu aktivlar vaqt o'tishi bilan, texnika texnologiyaning rivojlani yoki bashka turli sabablarga ko'ra qiymati pasayishi mumkin. Bu esa aktivlarning qadrsizlanganligini anglatadi.

Aktivning qadrsizlanganligi yoki qadrsizlanmaganligini qanday aniqlash mumkin? Aktivlar qadrsizlanishining belgilari qanday? Buxgalteriya hisobida qanday aks ettirish kerak? Keyingi davrlarda qadrsizlanishdan yo'qotishlarni qaytarish mumkinmi? Bu masalalarning barchasi hozirda buxgalterlar uchun yangidir, chunki aktivlarning qadrsizlanishi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda hiech qachon ko'tarilmagan va buxgalteriya hisobining oldingi standartlarida, ya'ni BHMSlarda aks ettirilmagan.

Aktivlar qadrsizlanishi hisobi va auditing nazariy-metodologik muammolari borasida xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular jumlasiga Hami Amiraslani, George E. Iatridis, Peter F. Pope, Djeys R. Xitchner, Stiven Xayden, Toye Adeladja, Tim Koller, Marc Goedhart, David Wessels

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги "Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3946-сон Қарори. <http://lex.uz/docs/3914502>


³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6221>

М.Б.Ухажова, А.М.Марясин, Т.Р.Исмагилова, Д.В.Тихомиров kabi olimlarni kiritish mumkin. Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan yaratilayotgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalar, shuningdek, chop etilayotgan ilmiy maqola va tezislarda aktivlar va ularning ma'naviy eskirishi hisobi va auditining nazariy muammolari qisman o'rganilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan M.K.Pardayev, I.N.Ismanov, R.Do'smurodov, K.B.Urazov, Sh.I.Ilxamov, N.F.Karimov, I.N.Qo'ziyev, M.E.Po'latov, S.N.Tashnazarov, K.R.Xotamov, N.K.Rizayev, I.R.Davletov, M.Fayzullayev, U.A.Shirinov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar. O'zbekiston korxonalarida buxgalteriya hisobini MHXS talablariga asoslanadigan tizimga o'tkazish dolzarb masalalar sirasiga kirganligi sababli, IAS 36 "Aktivlarning qadrsizlanishi" ga muvofiq aktivlarning qadrsizlanishi muammolarini hal qilish kerak.

IAS 36 barcha aktivlarning qadrsizlanishiga nisbatan qo'llaniladi, ammo quyidagilar bundan mustasno:

- ✦ zaxiralar (2-son BHXS "Zaxiralar");
 - ✦ 15-son MHXS "Haridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum"ga muvofiq tan olinadigan, shartnoma bo'yicha aktivlar va shartnoma tuzish sarflari yoki uni bajarishdan kelib chiqadigan aktivlar;
 - ✦ kechiktirilgan soliq aktivlari (12-son BHXS "Foyda soliqlari");
 - ✦ 9-son MHXS "Moliyaviy instrumentlar" ning qo'llash doirasida bo'lgan moliyaviy aktivlar;
 - ✦ haqqoniy qiymatda baholanadigan investisiya ko'chmas mulki (40-son BHXS "Investisiya ko'chmas mulki");
 - ✦ 41-son BHXS "Qishloq xo'jaligi"ning qo'llash doirasida bo'lgan sotish sarflari chegirilgan haqqoniy qiymatda baholanadigan qishloq xo'jaligi faoliyatiga tegishli biologik aktivlar;
- 5-son MHXS "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat"ga muvofiq, sotish uchun mo'ljallangan aktiv sifatida tasniflangan uzoq muddatli aktivlar (yoki hisobdan chiqariladigan guruhlar).

IAS 36 boshqa standartlarga muvofiq qayta baholangan qiymatlarda hisobga olingan aktivlarga nisbatan qo'llaniladi, masalan, IAS 16 "Ko'chmas mulk, binolar va jihozlar", IAS 38-"Nomoddiy aktivlar".



1-rasm. Qadrsizlanishga tekshiriladigan aktivlar.

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak aktivlar qadrsizlanishi bu korxonaga aktivlariga salbiy ta'sir qilishi va korxonaga aktivlarining kamayishiga olib keladi. Ularni o'z vaqtida aniqlab buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hami Amiraslani, George E. Iatridis, Peter F. Pope Accounting for asset impairment: a test for IFRS compliance across Europe.
2. Tim Koller, Marc Goedhart, David Wessels Valuation: Measuring and Managing the Value of Companies, 7th edition.
3. Toye Adeladja Accounting for Depreciation of Non-current Assets and Bookkeeping: Depreciation, Impairment and Revaluation of Non-current Assets/
4. М.Б.Ухажова/ Справедливая стоимость и ее использование в бухгалтерском учете: состояние и перспективы/автореферат,
5. А.М.Марясин/Методология признания убытков от обесценения нефинансовых активов/Финансовый журнал / Financial journal №6 2018.
6. Пўлатов М. Номоддий активларнинг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш масалалари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент 2006 й.
7. Широнов, У. А. (2021). Improvement of methodology of auditoral assessment of segmentary accounting and reporting reality in committees providing communication services. *Экономика и социум*, (5-2), 642-647.
8. Широнов, У. А., & Нарзуллаев, Н. А. (2022). Молиявий мажбуриятлар аудитини такомиллаштириш. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 810-813.
9. Широнов, У. А., & Нарзуллаев, Н. А. (2022). Молиявий мажбуриятлар аудитини методологик асослари. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 814-817.